

## INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA ENG KO‘P QO‘LLANILADIGAN USULLAR

*Uzbekistan State World Languages University  
Foreign language and literature faculty  
Senior teacher in the Department of Intergrated course 3*  
**Umarov Bobir Norboyevich**  
e-mail: [bobirumarov80@gmail.com](mailto:bobirumarov80@gmail.com)

**Annotation:** This article is intended for educators, students, and individuals who want to learn English independently. It outlines effective methods and strategies commonly used in learning English. Additionally, it provides practical advice and recommendations tailored for self-directed learners.

**Key words:** *BBC Learning English, Tandem, Duolingo, Memorise, Babbel, TED Talks, Voice of America, HelloTalk, Podcasts, Listening , Writing, YouTube.*

**Аннотация:** Данная статья предназначена для преподавателей, студентов и людей, желающих выучить английский язык самостоятельно. В статье перечислены эффективные и наиболее часто используемые методы изучения английского языка. Статья также содержит практические советы и рекомендации для самостоятельных учащихся.

**Ключевые слова:** *BBC Learning English, Tandem, Duolingo, Memorise, Babbel, TED Talks, Voice of America, HelloTalk, подкасты, прослушивание, письмо, YouTube.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o‘qituvchilar, talabalar va ingliz tilini mustaqil ravishda o‘rganmoqchi bo‘lgan kishilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, maqolada samarali bo‘lgan va ingliz tilini o‘rganishda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar sanab o‘tiladi. Shuningdek, maqolada mustaqil o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan, amaliyotga yo‘naltirilgan maslahat va tavsiyalar o‘rin olgan..

**Kalit so‘zlar:** *BBC Learning English, Tandem, Duolingo, Memorise, Babbel, TED Talks, Voice of America, HelloTalk, podcastlar, tinglabtushunish, yozishko‘nikmasi, YouTube.*

Barchamizga ma‘lumki, bugungi kunda ingliz tilini bilish insonlar uchun eng ahamiyatli ko‘nikma va mahoratlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Hattoki, ayrim hollarda insonning ingliz tilini bilish yoki bilmasligi uning karyerasi kelajagini belgilab berayotgani ham hechkinga sir emas. Turli rivojlangan mamlakatlar tomonidan oliy o‘quv yurtlariga ajratilayotgan grantlar va harajatlari to‘liq qoplab beriladigan o‘quv dasturlariga hujjat topshirish jarayonida ham ingliz tilini bilish darajasi muhim o‘rin tutmoqda. Ana shundaykasbiy-ta‘limiy ehtiyojlar va qiziqishlar sababli ko‘plab kishilar ingliz tilini o‘rganishga tom ma‘noda sho‘ng‘ib ketgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ingliz tilini o‘rganayotgan har bir inson o‘z maqsadi sari turli yo‘llardan borishga harakat qiladi, ya‘ni har kim o‘ziga xos usuldan foydalanadi.

Quyida ingliz tilini o‘rganayotgan qatlam orasida juda ham ommalashib ketgan va foydali bo‘lgan ba’zi usullarni taqdim etamiz:

*1-usul.* Onlayn o‘qish platformalaridan foydalanish. Ingliz tilini o‘rganishda onlayn platformalar insonlarga bir qancha qulay va samarali usullarni taklif etadi. Jumladan, Duolingo, Memrise, Babbel kabi platformalar interaktiv darslar, o‘yinlar va shu kabi qiziqarli mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan holda vazifalar yuklamasini oz-ozdan oshirib boorish orqali tilni o‘rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, ulardan foydalanayotgan o‘rganuvchilar kitob va daftarlar ko‘tarib yurishga majbur bo‘lmaydilar, shunchaki ularni telefon yoki kompyuterga o‘rnatish kifoya.

*2-usul.* Eshitish va takrorlash. BBC Learning English, Voice of America kabi platformalarda taqdim etilgan audio va video darslar, yangi xabarlarni tinglash orqali tinglovchilik qobiliyati va lug‘at boyligi oshiriladi. Bu usulda muvaffaqiyatga erishishda mashg‘ulotni davriy ravishda bajarish va tinglab o‘rgangan so‘zlarni kundalik nutqda ham qo‘llashga harakat qilish muhimdir.

*3-usul.* Kitoblar bilan ishlash. Ingliz tilida yozilgan turli badiiy adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalar bu tilni o‘rganuvchiga tilni tushunish, so‘zlashish va yozish ko‘nikmasini shakllantirish imkonini beradi. Bu kabi kitoblarni o‘qish jarayonida ularda uchragan notanish so‘zlarni o‘rganish orqali o‘rganuvchilar o‘z lug‘at boyliklarini kengaytirishadi va muhim so‘zlar bilan tanishishadi.

*4-usul.* So‘zlashish va yozish praktikasi. Tandem, HelloTalk va shu kabi ilmiy-ta’limiy tarmoqlar do‘stlar bilan tanishish, ingliz tilida suhbatlashish va talaffuzni yaxshilash kabi ham qiziqarli ham foydali va samarali imkoniyatlarni taqdim etadilar. Bu tarmoqlar orqali do‘stlar bilan suhbatlashib, tilni amaliyotda qo‘llash nutqdagi to‘xtalishlar va ikkilanishlarni kamaytirishda yaxshi natija beradi. So‘zlashish mahoratini oshirish barobarida yozish ko‘nikmasini rivojlantirish ham juda muhimdir. Yozish ko‘nikmasini shakllantirishda blog yozish, qisqa hikoyalar yaratish yoki kundalik hayotda sodir bo‘layotgan kichik voqealar haqida yozish kabi amaliyotlarni bajarish muhim o‘rin tutadi.

*5-usul.* Inglizcha filmlar va videolar. Ingliz tilini o‘rganishda audio va video materiallardan foydalanish juda samarali va tez natija beradigan usullardan hisoblanadi. Inglizcha filmlar, seriallar va YouTube kanallari o‘rganuvchining tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Materiallarni subtitrlar bilan tomosha qilish tinglash bilan bir qatorda yangi so‘zlar, va so‘zlashuv usullarini o‘rganishi mkonini yaratadi.

*6-usul.* Inglizcha podcastlar. TED Talks, podcastlar kabi audio materiallar orqali tinglab tushunish qobiliyatini oshirish, ravon va to‘g‘ri talaffuz bilan gapirishni o‘rganish mumkin. Podcastlar ingliz tilining so‘zlash usullari va intonatsiya bilan gapirishni o‘rganish uchun ideal vositadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish lozimki, bu usullarni birlashtirish va ularning kombinatsiyasini qo‘llab-quvvatlash, ular bilan har kuni ozgina vaqt ajratib shug‘ullanish va sabrli bo‘lish tilni o‘rganishda muvaffaqiyatga erishishingizni

ta’minlaydi va til o‘rganish jarayonini qiziqarli mashg‘ulotga aylantirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://hasanboy.uz/132/>
2. <https://kun.uz/uz/45979316>
3. <https://newjournal.org/index.php/new/article/download/1728/1568/1572>
4. <https://fledu.uz/uz/ingliz-tilini-qiyinchiliksiz-tez-va-oson-organish-usullari/>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilini-o-rgatishning-zamonaviy-usullari>